## Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar
## 2024 yil yanvar-mart

| | *Mlrd so‘m* | *2023 yil yanvar-martiga nisbatan foiz hisobida* |
|---|---|---|
| Yalpi hududiy mahsulot | | |
| Sanoat mahsuloti | | |
| Istemol tovarlari | | |
| Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari | | |
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | 5 136,2 | 106,5 |
| Qurilish ishlari | 1 419,5 | 111,0 |
| Yuk aylanmasi (mln. tn–km) | | |
| Yo‘lovchi aylanmasi (mln. yo‘lovchi.–km) | | |
| Chakana savdo tovar aylanmasi | | |
| Xizmatlar, jami | | |
| Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.)[1]) | | |
| Eksport | | |
| Import | | |
| Saldo (+,–) | | |

* Ishlab chiqarish

# IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH



2025- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 5 136,2 mlrd so‘m, (dollar ekvivalentida 396,5 mln AQSh doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,5 % ga o‘sdi.

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.




**2025- yil 1-aprel holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, *birlikda***

**Yillar kesimida soni**




**Bino va inshootlar qurilishi** — **562**

**Fuqarolik obyektlari qurilishi** — **301**

**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari** — **271**

**Hududlar kesimida**



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror oʻsishiga oʻzining munosib hissasini qoʻshib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 72,2 % ni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar soni yoʻnalishlari kesimida quyidagi koʻrinishga ega boʻldi:

binolar va inshootlar qurilishi - 49,6 %;

fuqarolik obyektlarini qurish - 26,5 %;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yoʻnalishi - 23,9 %ni tashkil qildi.

## Moliyalashtirish manbalari va mulkchilik shakllari boʻyicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi 2025- yil yanvar-mart

| | *Jami* | *shu jumladan: mulkchilik shakllari boʻyicha:* | |
|---|---|---|---|
| | | *davlat* | *nodavlat* |
| Jami investitsiyalar, mlrd soʻm | **5 136,2** | **339,6** | **4 796,6** |
| *shu jumladan: moliyalashtirish manbalari boʻyicha:* | | | |
| davlat byudjeti mablagʻlari | 170,7 | 142,3 | 28,4 |
| Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʻarmasi | 1,5 | - | 1,5 |
| korxonalar va aholi mablagʻlari | | | |
| chet el investitsiyalari va kreditlari | 1 243,5 | 64,7 | 1 178,8 |
| bank kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari | 3 632,0 | 131,9 | 3 500,1 |
| Tiklanish va taraqqiyot fondi | 88,5 | 0,7 | 87,8 |

Davlat byudjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy ta'minot tizimini qoʻllab quvvatlashga, Jizzax viloyati infrastrukturasini rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yoʻnaltirilgan.

# Qurilish ishlari
# 2025- yil yanvar-mart

| | Qurilish ishlari, mlrd so'm | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilot-lari | Kichik va mikro-firmalar | Norasmiy sektor |
| **Jizzax viloyati** | **1 419,5** | **187,8** | **717,8** | **513,9** |
| *shahar:* | | | | |
| Jizzax | 461,6 | 97,1 | 301,8 | 62,7 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Arnasoy | 17,0 | 5,1 | 7,6 | 4,3 |
| Baxmal | 32,2 | 1,1 | 8,4 | 22,7 |
| G'allaorol | 45,5 | 1,1 | 24,4 | 20 |
| Sharof Rashidov | 139,7 | 0,0 | 110,7 | 29 |
| Do'stlik | 26,3 | 1,7 | 14,3 | 10,3 |
| Zomin | 96,6 | 22,4 | 39,7 | 34,5 |
| Zarbdor | 24,2 | 0,5 | 14,8 | 8,9 |
| Mirzacho'l | 16,0 | 1,8 | 6,6 | 7,6 |
| Zafarobod | 15,7 | 4,3 | 4,5 | 6,9 |
| Paxtakor | 51,2 | 3,5 | 32,6 | 15,1 |
| Forish | 23,2 | 1,8 | 16,6 | 4,8 |
| Yangiobod | 6,7 | 1,0 | 3,2 | 2,5 |

***Qurilish ishlari hajmining taqsimlanishi,*** *foiz hisobida*

1. *Kichik korxona va mikrofirmalar.*
2. *Norasmiy sektor.*
3. *Yirik qurilish tashkilotlari.*




2025- yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 187,8 mlrd so'mni tashkil qildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 2,3 martani tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 13,2 % ga yetdi.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

*(mlrd so‘m)*

| *Faoliyat turlarining nomi* | *Yanvar-mart* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *2023 yil* | *Umumiy hajmga nisbatan % da* | *2024 yil* | *Umumiy hajmga nisbatan % da* | *2025 yil* | *Umumiy hajmga nisbatan % +da* |
| **Jami** | **2 910,8** | **100,0** | **4 545,4** | **100,0** | **5 136,2** | **100,0** |
| ***shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:*** | | | | | | |
| qishloq, o‘rmon va baliqchlik xo‘jaligi | 201,4 | 6,9 | 583,0 | 12,8 | 1 031,4 | 20,1 |
| tog‘–kon sanoati | 8,6 | 0,3 | 184,8 | 4,1 | 265,1 | 5,2 |
| ishlab chiqarish sanoati | 1 537,1 | 52,8 | 2 598,3 | 57,2 | 1 638,1 | 31,9 |
| elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | 480,4 | 16,5 | 556,5 | 12,2 | 1 342,4 | 26,1 |
| suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | 158,9 | 5,5 | 22,8 | 0,5 | 56,0 | 1,1 |
| qurilish | 62,6 | 2,2 | 54,2 | 1,2 | 165,6 | 3,2 |
| ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’mirlash | 37,2 | 1,3 | 32,5 | 0,7 | 88,9 | 1,7 |
| tashish va saqlash | 22,8 | 0,8 | 6,9 | 0,2 | 128,4 | 2,5 |
| yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | - | - | 169,2 | 3,7 | 18,0 | 0,4 |
| axborot va aloqa | 10,9 | 0,4 | 21,5 | 0,5 | 10,1 | 0,2 |
| moliyaviy va sug‘urta faoliyati | 1,9 | 0,1 | 1,6 | 0,0 | 2,6 | 0,1 |
| professional, ilmiy va texnik faoliyat | 46,6 | 1,6 | 7,1 | 0,2 | 17,7 | 0,3 |
| ta’lim | 16,2 | 0,6 | 37,7 | 0,8 | 12,4 | 0,2 |
| sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 49,0 | 1,7 | 24,9 | 0,5 | 29,4 | 0,6 |
| Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar | 123,1 | 4,0 | 201,6 | 4,4 | 295,8 | 5,7 |

*(davomi)*

| *Faoliyat turlarining nomi* | *Yanvar-mart* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *2023 yil* | *Umumiy hajmga nisbatan foizda* | *2024 yil* | *Umumiy hajmga nisbatan foizda* | *2025 yil* | *Umumiy hajmga nisbatan foizda* |
| san'at, ko'ngil ochish va dam olish | 10,9 | 0,4 | 3,0 | 0,1 | 0,8 | 0,0 |
| boshqa faoliyat turlari | 143,2 | 4,9 | 39,8 | 0,9 | 33,5 | 0,7 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tog'-kon sanoatida – 265,1 mlrd so'm (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 5,2 %), ishlab chiqarish sanoatida – 1 638,1 mlrd so'm (31,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda –1 342,4 mlrd so'm (26,1 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 56,0 mlrd so'm (1,1%), qurilishda – 165,6 mlrd so'm (3,2 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashda – 88,9 mlrd so'm (1,7 %), tashish va saqlashda –128,4 mlrd so'm (2,5 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 18,0 mlrd so'm (0,4%), axborot va aloqada 10,1 mlrd so'm (0,2 %), moliyaviy va sug'urta faoliyatida 2,6 mlrd so'm (0,1%), professional, ilmiy va texnik faoliyatda – 17,7 mlrd so'm (0,3 %), ta'limda – 12,4 mlrd so'm (0,2 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 29,4 mlrd so'm (0,6%), boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar joy binolari qurilishida – 295,8 mlrd so'mlik (5,7 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

### Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar

2025- yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 3 632,0 mlrd so'mni yoki 2024 yilning mos davriga nisbatan 8,9 foizga kamayganini ko'rish mumkin.

## Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi 2025- yil yanvar-mart

| *Investitsiya turlari* | *Umumiy hajmi (mlrd so'm)* | *Shu jumladan:* | |
|---|---|---|---|
| | | *davlat kafolati ostida* | *to'g'ridan-to'g'ri va boshqalar* |
| **Jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar** | **3 632,0** | **158,2** | **3 473,8** |
| shu jumladan: | | | |
| davlat | 131,9 | 131,9 | - |
| nodavlat | 3 500,1 | 26,3 | 3 473,8 |

Hisobot davrida viloyat bo'yicha to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning, nodavlat sektoriga kiritilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlari 4,4 % ga kamaydi.

## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, 1-aprel holatiga, *birlikda*

| | *Shu jumladan:* | | *o‘tgan yiliga nisbatan, foizda* |
|---|---|---|---|
| | *2024 yil* | *2025 yil* | |
| **Jizzax viloyati** | **1 371** | **1 134** | **82,7** |
| *shahar:* | | | |
| Jizzax | 547 | 459 | 83,9 |
| *tumanlar:* | | | |
| Arnasoy | 37 | 27 | 73,0 |
| Baxmal | 55 | 45 | 81,8 |
| G‘allaorol | 104 | 90 | 86,5 |
| Sharof Rashidov | 196 | 171 | 87,2 |
| Do‘stlik | 39 | 26 | 66,7 |
| Zomin | 94 | 88 | 93,6 |
| Zarbdor | 74 | 49 | 66,2 |
| Mirzacho‘l | 36 | 31 | 86,1 |
| Zafarobod | 29 | 23 | 79,3 |
| Paxtakor | 74 | 68 | 91,9 |
| Forish | 58 | 40 | 69,0 |
| Yangiobod | 28 | 17 | 60,7 |






Yuqoridagi jadvalda viloyatning barcha shahar va tumanlarida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘tgan yilning 1-choragi davridagiga nisbatan kamayganligini ko‘rish mumkin.

## Qurilish ishlari
## 2025- yil yanvar-mart

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.

**Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish hajmlarining ulushi**




**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



## Xorijiy investitsiya va kreditlarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi




Ishlab chiqarish sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 34,3 % ni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 29,4 % ga kamaydi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 16,7 foizni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 foizga ko‘paydi.

Boshqa sohalarda xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 42,7 % ni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 23,6 % ga ko ‘paydi.

Xorijiy investitsiya va kreditlar bo‘yicha yuqori ulushga ega tumanlar




O‘tgan yilning mos davriga nisbatan tog‘-kon sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar 2,1 % ga ko‘paydi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha salmoqli qismining o‘zlashtirilishi boshqalar sohasiga to‘g‘ri kelib, jami xorijiy investitsiyalar hajmidan 42,7 % ni tashkil qildi va 2024 yilning yanvar-martiga nisbatan 23,6 % ga ko‘paydi, ishlab chiqarish sanoati esa – 34,3 % ni tashkil qilib, 29,4 % ga kamayganligi kuzatildi.

## Joriy yilning yanvar-mart oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashgan investitsiyalar tarkibi




## Joriy yilning yanvar-mart oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashmagan investisiyalar tarkibi



## 2025- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining shahar va tumanlar kesimida ifodalanishi

| | *Investitsiyalar hajmi, mlrd so'm* | *O'sish sur'ati, % da* | *Aholi jon boshiga (ming so'm)* | *O'sish sur'ati, % da* |
|---|---|---|---|---|
| **Jizzax viloyati** | **5 136,2** | **106,5** | **3 333,3** | **104,4** |
| *shahar:* | | | | |
| Jizzax | 1 199,2 | 134,5 | 5 984,2 | 131,8 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Arnasoy | 227,6 | 183,8 | 4 597,1 | 181,2 |
| Baxmal | 68,8 | 36,7 | 394,1 | 35,9 |
| G'allaorol | 426,2 | 57,2 | 2 231,2 | 56,0 |
| Sharof Rashidov | 408,8 | 32,9 | 1 637,1 | 32,1 |
| Do'stlik | 346,9 | 2,3 m. | 4 886,3 | 2,3 m. |
| Zomin | 108,3 | 42,0 | 587,2 | 41,0 |
| Zarbdor | 131,9 | 2,4 m. | 1 365,1 | 2,4 m. |
| Zafarobod | 220,3 | 61,9 | 4 035,2 | 61,0 |
| Mirzacho'l | 272,3 | 138,9 | 4 828,3 | 136,7 |
| Paxtakor | 160,9 | 190,8 | 1 950,4 | 187,6 |
| Forish | 1 478,8 | 3,1 m. | 14 803,0 | 3,0 m. |
| Yangiobod | 86,2 | 151,3 | 2 854,9 | 149,3 |

### Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

Uy–joy qurilishida 295,7 mlrd so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining 5,8 % ni tashkil qildi.

## 2024 yilning yanvar-mart oylarida yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy va ijtimoiy soha obyektlari

| *Obyekt turlari* | *Barcha manbalar hisobidan* | | | |
|---|---|---|---|---|
| | *2025 yil yanvar-martida foydalanishga topshirildi* | | *2024 yil yanvar-martida foydalanishga topshirilgan* | |
| | *jami* | *shu jumladan: qishloq joylarda* | *jami* | *shu jumladan: qishloq joylarda* |
| Uy–joy, umumiy maydoni ming kv.m | 162,0 | 53,0 | 130,4 | 86,2 |
| *undan:* *yakka tartibdagi uy–joylar* | 162,0 | 53,0 | 130,4 | 86,2 |
| yakka tartibdagi uy–joylar namunaviy loyihalar bo‘yicha shahar va qishloq joylarda | - | - | - | - |
| Umumiy ta’lim va maxsus maktablar, o‘quvchilar soni | - | - | - | - |
| Suv tarmoqlari, km | 8,9 | 7,2 | 33,3 | 40,9 |
| Gaz tarmoqlari, km | 2,4 | 0,7 | 58,5 | 38,9 |

2025- yilning yanvar-mart oylarida umumiy maydoni 162,0 ming kv. m bo‘lgan 606 ta uy-joy (2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 130,4 %), shu jumladan qishloq joylarida 53,0 ming kv.m (86,2 %) maydonga ega 212 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.

Kommunal qurilishda 8,9 km suv tarmoqlari (shundan, 7,2 km qishloq joylarda) va 2,4 km gaz tarmoqlari (0,7 km qishloq joylarda) ishga tushirildi. Mos ravishda suv tarmoqlari qurilishiga 12,3 mlrd so‘m, shundan aholi mablag‘lari hisobidan 0,1 mlrd so‘m (0,4 %) va suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 1,2 mlrd so‘m (9,8 %) hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 11,0 mlrd so‘m (umumiy hajmning 89,8 %) o‘zlashtirildi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 0,1 mlrd so‘m, shundan aholi mablag‘lari hisobidan 0,1 mlrd so‘m (umumiy hajmning 100 %) o‘zlashtirildi.

## Qurilish faoliyati

2025- yilning yanvar-mart oylarida 1 419,5 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,0 % ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi,**

*mlrd so‘mda*

| | *yanvar-mart* | | |
|---|---|---|---|
| | *2023- yil* | *2024- yil* | *2025- yil* |
| **Qurilish ishlari hajmi** | **731,1** | **1 238,9** | **1 419,5** |
| *shu jumladan:* | | | |
| davlat | - | 52,0 | 68,2 |
| nodavlat | 731,1 | 1 186,9 | 1 351,3 |

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1 351,3 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmining 95,2 % ni tashkil qildi.

**Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish tashkilotlarining o‘z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti**
*(umumiy hajmga nisbatan % da)*



## Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi

Qurilish ishlari umumiy hajmining 80,7 % i binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari, 13,3 % i fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari va 6,0 % i ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to‘g‘ri keldi. Shu jumladan, umumiy hajmdan 85,3 % i yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlash ishlariga to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida viloyat bo‘yicha jami qurilish ishlarida nodavlat sektorning hajmi 1 351,3 mlrd so‘m, ulushi 95,2 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 85,3 % i yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va korxonalarni texnik qayta qurollantirishga, 14,7 % i esa, kapital, joriy ta’mirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariga to‘g‘ri keldi.

## 2025 yilning yanvar-mart oylarida faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, *mlrd so‘mda*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyhalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 80,7 % ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatgichga nisbatan 8,6 % punktga ko‘paydi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi, yanvar-mart oylarida

**2024 yil** **2025 yil**



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 13,3 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,5 % punktga ko‘paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga 6,0 % i to‘g‘ri kelib, o‘tgan yildagi ko‘rsatgichga nisbatan 2,2 % punktga ko‘paydi.

**2025 yil yanvar-mart oylarida tuman(shahar)lar kesimida qurilish ishlarining korxonalar toifasi bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, foizda**




Yirik pudrat korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari o‘tgan yilga nisbatan 2,3 martaga o‘sdi. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajariligan ishlarning o‘sish sur’ati 104,7 % ni, norasmiy sektorniki esa 100,3 % ni tashkil qildi.